

O'ktam To'rayev temir yo'l yoqasidagi obodonlashtirish ishlarini o'rgandi



O'ktam To'rayev temir yo'l yoqasidagi obodonlashtirish ishlarini o'rgandi

Bugun Surxondaryo viloyati hokimining topshirig'iga asosan shahar hokimi O'ktam To'rayev Termiz shahar temir yo'l stansiyasidan Termiz tuman hududigacha bo'lgan temir yo'l yoqasida joylashgan mahallalar hududi va aholi yashash joylari holati bilan tanishdi. Shahar rahbariga tegishli hokim o'rinbosari, shahar prokurori Xudoynazar Mamatqulov, shahar IIB boshlig'i Elbek Nurullayev, shahar DSI rahbari Sunatilla Muxamadiyev va mutasaddi idoralar rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari hamrohlik qildi.

O'rganish jarayonida temir yo'l yoqasida joylashgan mahallalardagi ayanchli manzaralar, har yerda to'planib turgan chiqindilar uyumi, dov-daraxtlarga shakl berish va oqlash ishlari bajarilmaganligi va yovvoyi o't-o'lanlar bilan qoplanganligi mahalla husniga dog' tushurayotganligi tanqid qilindi.

Xuddi shunday, aholi xonadonlari, tomorqalari holati ham shahar hokimi e'tiboridan chetda qolmadi. Ayrim uylarning tom va fasad qismlari ta'mirlanmaganligi, devorlari oqlanmaganligi, ba'zi joylarda fuqarolarga tegishli qurilishga ishlatiladigan qum va tosh-shag'alning betartib to'kib qo'yilganligi ko'rsatildi.

O'ktam To'rayev mahallalarning ozodaligiga erishish, odamlarga uy-joyiga e'tiborli bo'lish hissini yana-da kuchaytirish hamda toza saqlash uchun mutasaddilarga mas'uliyatini oshirish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli ko'rsatma va tashvirlar berildi.

O'rganish yakunida kelgusi haftada yana ushbu yo'nalishlar bo'yicha yurilib, bugun ko'rsatilgan kamchiliklarning qay darajada bartaraf etilganligini o'rganish belgilandi.








Image not found or type unknown

